

**O'QUVCHILAR XULQ-ATVORI PROFILAKTIKASIDA MAQSADGA  
YO'NALТИРІЛГАН ТАРБИЯВІЙ ТАСІР МОДЕЛИ**

**Qodirov Obid Safarovich**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*“Psixologiya” kafedrasи mudiri*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent*

**Rabbimov Obid**

**G'oyibnazarov Jasur**

*70310901 – Psixologiya*

*(faoliyatning turli sohalari bo'yicha)*

*yo'nalishi magistrantlari*

**Annotasiya:** Maqolada o'quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir modeli yaratish shart-sharoitlari, ijtimoiy darajada yoshlarning hayot faoliyatini tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi inson jinoiy hatti-harakatlarining elementlari va ularni oldini olish to'g'risida mulohazalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy adolat, demokratiya, o'smirlilik davri inqirozi, motivasiya, ehtiyojlar, o'jarlik, aggressivlik, tajovuzkorlik, nizoli vaziyatlar, ijtimoiy xulq-atvor, sog'lom avlod, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit.

Hozirgi davrda o'smirlarni voyaga yetkazishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlar, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtaida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlari yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovrug'ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste'dodlilari ko'p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq;... Guruch kurmaksiz bo'lмаганidek, hayotda o'z yo'lini topa olmag'an va buning natijasida bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolganlari ham bor. Ular yoshlikning jo'shqinligini, kuch-g'ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani xammamizni tashvishga solishi kerak». Eng achinarlisi shuki, ushbu jinoyatlarning aksariyati yoshlari tomonidan sodir etilgan. Bu esa, ulg'ayib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi borasida hali o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini

ko'rsatadi. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan so'zлari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgani yo'q.

Turg'unlik yillaridagi “so'z bilan ishning nomuvofiqligi”, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlilik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani; 2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani; 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqyealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallahsgani; 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanzarvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkoraliq, ijtimoiyadolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani; 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlilik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar sezildi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi o'quvchilarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rirlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalarini mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tqazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmati haqidagi

tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik hatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlilik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqsa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlilik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirganligi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni, psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singapi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Maktab va bilim yurtida oilada mustaqil faoliyatga keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni, bajara boshlaydi. Natijada o'smirning ijtimoiy mavqyei ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10–11 dan 14–15 yoshigacha o'smirlilik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlilik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqyeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki

xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd nazariyasining mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir hatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenegik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani ilgari suradi. Ammo noto'g'ri nuqtai nazardan o'smirlikni biologik va psixologik kategoriyadan tashqari deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipasiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixoglarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan hyech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lif va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

3. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
4. O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida". Qonunchilik palatasi

tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma'qullangan.// Qalqon.2010. № 10 B- 2-13.

3. M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochilayev, A. Yo'ldoshev, A. Abdullayev "Madaniyatshunoslik asoslari". «Turon-Iqbol» nashriyoti, Toshkent — 2006 y.
4. M.Imomnazarov "Milliy ma'naviyatimiz asoslar". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006.
5. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2008.
6. Jabborov A.M. "O'qituvchi etnopsixologiyasi" Qarshi "Nasaf" nashriyoti, 2015. 38-104 s.
7. K.Raximova, A.Abdullayeva. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. 2006 y.
8. G.Q.Tulaganova. "Deviant xulqning psixologik korreksiyasi" Toshkent "Universitet" nashriyoti, 2014. 150s.
9. O.S.Qodirov "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi" // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.